XALQ DEPUTATLARI YUQORICHIRCHIQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 24-sentabr VI-111-93-10-145-K/24 Yuqorichirchiq tumani

Yuqori Chirchiq tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari sarflanishini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31 martdagi “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 145-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 7 iyundagi “Yoshlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 312-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2021 yil 18-19 mart kunlari Toshkent viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan 15-son yig‘ilish bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 fevraldagi PQ-57 son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi kengaytirilgan videoselektor yigilishining 8-sonli bayoni 3-bandi hamda tuman hokimi o‘rinbosarlari A.Tastanbekov va D.Asqarovlarning bildirgisini inobatga olib va “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Yuqori Chirchiq tuman Kengashi.

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimi o‘rinbosarlari (**A.Tastanbekov va D.Asqarovlarning**) bildirgilari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari sarflanishini, **1-ilovaga**, muvofiq sarflansin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (**G.O‘tbosarova**)ga hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (**A.Tastanbekov**) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



ATEMOV USKENBAY
XXX

Xalq deputatlari Yuqorichirchiq tumani Kengashining
2024-yil 24-sentabrdagi
VI-111-93-10-145-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Yuqori Chirchiq tumani mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida

M A ‘ L U M O T

(mln.so‘mda)

№	Mablag‘ yo‘naltiriladigan tashkilot nomi	Mablag‘ mabalari nomi	Mablag‘ yo‘naltirilishining maqsadi	Jami yo‘naltiriladigan mablag‘ miqdori
1	Tuman hokimligi	1-chorak DROBQ	Yoshlar daftari jamg‘armasiga 15 %	200,0
2	Tuman hokimligi	1-chorak DROBQ	Ayollar daftari jamg‘armasiga 15 %	200,0

3	Tuman hokimligi	1-chorak DROBQ	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2021 yil 18-19 mart kunlari Toshkent viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zmilliy bank AJ dan olingan kredit mablag‘larini qaytarish uchun	1 481,0
4	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Erkin qoldiq	Tuman aholisi elektr ta’minotini yaxshilash maqsadida temir beton tayanchlar sotib olish uchun. 280 ta	308,0
5	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Erkin qoldiq	Ma’rifat MFY hududida joylashgan tuman Obodonlashtirish boshqarmasi balansidagi Yoshlar bog‘ini yoritish va bezatish uchun o‘rnatilgan ko‘cha chiroqlaran yuzaga kelgan elektr energiya ta’minoti qarzdorligi qoplash xarajatlari uchun.	35,0

6	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	Erkin qoldiq	Tumandagi 1, 10-sonli maktablar va 12, 13-sonli maktabgacha ta’lim muassasalariga quyosh panel o‘rnatish	200,0